




MAMLAKATNING INVESTITSION SALOHIYATINI OSHIRISHDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI.

¹ Gapparov Faruk Abdukaxarovich

¹ O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

Bugungi kundagi iqtisodiy faktorlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, investitsiyalar – bu mamlakat iqtisodiyotini sezilarli darajada harakatga keltiruvchi drayver hisoblanadi. Har bir davlatning iqtisodiy arsenalida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq turli-xil moliyaviy mexanizmlarni amaliyotda qo‘llash, retsipient pozitsiyasida ish tutish va hududiy investitsion jozibadorlikni yaratish bosh maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda investitsiyalarni faol jalb etishda yetarlicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Investitsiya sohasining eng yirik uchta yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular quyidagi rasmda o‘z aksni topgan (1-rasm).




1-rasm. Mamlakat investitsiya sohasining tasniflanishi¹

¹ Investitsiya sohasiga oid adabiyotlar yordamida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

Yuqoridagi rasmda ko'rishimiz mumkinki, investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlarda bu yo'nalishlar katta ahamiyat kasb etadi. Ular, investitsiya muhiti, investitsiya jozibadorligi va investitsiya salohiyatidir. Yo'nalishlar tarkibiga kiruvchi segmentlar esa bevosita investitsiyalarni operativ jalb etishdagi qismlar hisoblanadi. Shuningdek, segmentlar ta'sirida shakllangan tarmoqlar ham mavjud bo'lib, davlat va hududiy nuqtai nazardan investitsiyalarni ko'paytirishda kompleks tarzda hissa qo'shadi. Bunga qo'shimcha eng muhimi – xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotganligi hamda butun jahon miqyosida raqobatbardosh davlatlardan biriga aylanayotganligi mamlakat, mintaqa va undagi iqtisodiy tarmoqlari, qolaversa, alohida korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan olib borilayotgan investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liqdir.

Hududlarning investitsion jozibadorligini ko'rsatuvchi omillar guruhlangan holda yagona tizimga keltirildi. Bunda asosiy guruhlar sifatida hududning kompleks ko'rsatkichlari aks etadigan ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni anglatuvchi nuqtai nazarlar va ilmiy-amaliy qarashlar umumlashtirilgan va klassifikatsiyalangan. Quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasining (hududlar kesimida) investitsiyalarni jalb etish salohiyati, shartnomalar soni, qolaversa, jalb qilingan investitsiya mablag'lari aks etgan (2-rasm)



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining hududiy kesimda investitsiya sohasiga oid ko'rsatkichlari 2022-yil holatiga ko'ra²

² <https://davaktiv.uz> – sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda 2021-yil holatiga ko'ra, shartnomalar soni bo'yicha Toshkent viloyati, Investitsiyalarni (AQSh dollarida) jalb etish masalasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, investitsiyalarni (mln. so'mda) o'zlashtirish bo'yicha Navoiy viloyati, yaratilgan ish o'rinlari soni borasida Jizzax viloyati yuqori o'rinlarni egallagan.

Bundan ko'rinib turibiki, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rolining muhimligini anglagan holda ushbu investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ularni to'liqligicha o'zlashtirish mamlakatda aholi bandligi va turmush darajasining o'sishiga, aholi daromadlilikini yaxshilashga, xalqaro maydonda mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda davlatning o'rta va uzoq muddatli oraliqdagi investitsion strategiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Hududiy boylikni oshirishda kapital resursidan unumli hamda omillarning chekli kamayib borish qonunidan kelib chiqib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va maqbul proporsiyada foydalanish bo'yicha modellarni ishlab chiqish;
2. Hududlarning bir maromda barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning bir tekisda katta tafovutlarsiz taraqqiy etishiga xizmat qiladigan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish choralarini ko'rish;
3. Yuqori texnologiyalarga asoslangan va yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan qo'shma loyihalarni tashkil etishga xizmat qiladigan qulay biznes-muhitini yaratish;
4. Iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur;

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tadbiq etish yaqin kelajakda o'z natijasini beradi. Shiningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.